

---

## DEVONA (I- QISM)

Tohir Malik



- *Buvajon, mushuk nimadan tarqalgan?*
- *Mushukmi? Mushuk — arslondan, bolam.*
- *It-chi?*
- *It — bo‘ridan.*
- *Odam-chi?*
- ...



### MUQADDIMA O‘RNIDA

... U xurjunini yelkasiga olib, uzoq yurdi. Ko‘chki bosgan yerga yetib kelgunicha oyoqlari qaqshab ketdi. U hali ko‘chki nima ekanini bilmasdi. Belga qadar qorga botgan kezlari iziga qaytganidan pushaymon bo‘lar, chiqib olganda esa: «Ota yurtdan uzilgandan ko‘ra muzlab o‘lganim afzal», deb qo‘yardi.

Oqshomga borib uning sillasi quridi, ochiqdi. Shunda ham to‘xtamadi. Faqat shom qorong‘usidagina tamaddi qilib olish maqsadida xurjunini yerga qo‘ydi. O‘tirib, nafasini rostladi. Keyin qo‘lini xurjunga tiqdi. Silliq, sovuq, yumaloq bir narsaga qo‘li tegdi. Seskandi. Xurjuning og‘zini ochib, ikki qo‘llab uni chiqardi. Chiqardi-yu, serrayib qotib qoldi. Nafasi ham, yurak urishi ham to‘xtadi. U xurjundan... akasining kallasini olgan edi!..

Tog‘lar ham qotib qoldi. Osmon ham. Dunyoning hayot tomirlaridan jon chiqib ketdi. Bir zum, faqat bir zum shunday bo‘ldi. U qo‘lidagi kallani tashlab yubordi. Akasining kesilgan boshi qorga cho‘kdi. Uning qalbidan otilgan faryod sukunatni qalqitib yubordi. Tog‘lar aks-sado berdi. Yo‘q, aks-sado emas bu. Tog‘lar ham faryod chekdi. Bu faryodni qorlar o‘ziga shima olmadi — osmon bag‘riga singirdi.

Hozirgina oqligi bilan ko‘zni qamashtirayotgan qor bir nafasda qop-qora bo‘lib qoldi. Keyin asta qizardi. Cho‘qqilardan qip-qizil qon oqib kela boshladi. Issiq qon uni ham bag‘riga tortib, avval tovonini kuydirdi, keyin badaniga tarqaldi. So‘ng miyasi qiziy boshladi. Tomog‘i qurib, qonni simira ketdi. Simirgan sayin ichi kuyaverdi. Keyin qon qorga singib, atrof asta oqardi. Shunda u qorga botib turgan kallani avaylab qo‘liga oldi. Yumuq ko‘zlarni, o‘siq qoshlarni siladi. Silay turib vujudidan yana faryod otilib chiqdi.

Osmon qa‘riga ikki kungacha faryod otilib turdi. Keyin bu ovoz boshqa yerlarga ko‘chdi.

U ozib-to‘zib ketdi. Borar joyini ham unutdi: telba bo‘lib qoldi. Kallani qo‘lidan